

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MATRASULOV JASURBEK DAVRONBEK O‘G‘LI

**PAST O‘LCHAMLI SODDA KVANT TIZIMLARI VA STOXASTIK
JARAYONLARNING BOSHQARILADIGAN ADIABATIK
EVOLYUTSIYASINI MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui (fizika-matematika fanlari)

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical –
mathematical sciences**

Matrasulov Jasurbek Davronbek o‘g‘li

Past o‘lchamli sodda kvant tizimlari va stoxastik jarayonlarning
boshqariladigan adiabatik evolyutsiyasini modellashtirish..... 3

Матрасулов Жасурбек Давронбек угли

Моделирование управляемой адиабатической эволюции простых квантовых
систем и стохастических процессов в системах низкой размерности..... 24

Matrasulov Jasurbek Davronbek ugli

Modelling of the controlled adiabatic evolution of simple quantum systems
and stochastic processes in low-dimensional systems 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MATRASULOV JASURBEK DAVRONBEK O‘G‘LI

**PAST O‘LCHAMLI SODDA KVANT TIZIMLARI VA STOXASTIK
JARAYONLARNING BOSHQARILADIGAN ADIABATIK
EVOLYUTSIYASINI MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui (fizika-matematika fanlari)

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/FM860 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.ifar.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Jambul Ruslonovich
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Polvonov Satimboy Rajapovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor
Kolovskiy Andrey Radievich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzurida Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «25» oktabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; Tel.: +99871 237-09-61.; e-mail: info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (8 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; Tel.: +99871 237-09-61.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “19” iyun kuni tarqatildi.
(2023-yil «17» iyundagi 8 raqamli reestr bayonnomasi.)

B.J. Ahmedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

E.X. Karimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

B.M. Narzilloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fizika-
matematika fanlari doktori, yetakchi ilmiy
xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi o‘n yillikda butun dunyoda olib borilayotgan jadal ilmiy va amaliy tadqiqotlar zamonaviy kvant texnologiyalarining asosini tashkil etuvchi turli kvant materiallari va qurilmalarida qo‘llash istiqboliga ega bo‘lgan kvant jarayonlarini boshqarish va manipulyatsiya qilish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Aynan shunday texnologiyalarni joriy etish orqali nano- va kvant texnologiyalaridagi zamonaviy mexanik, elektron, optik, issiqlik va boshqa qurilmalarning resurs tejamkorligi va miniatyurizatsiyasida sezilarli yaxshilanishlar kutilmoqda. Bunday maqsadga erishish kvant jarayonlarining evolyutsiyasini boshqarish muammosini hal qilish imkonini beradigan, kvant rejimida sodir bo‘ladigan fundamental jarayonlarning mexanizmlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Va buni, o‘z navbatida, yuqorida qayd etilgan jarayonlarning kvant evolyutsiyasining fizika nuqtai nazaridan maqbul va samarali matematik modellarini ishlab chiqmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Aynan shunday modellarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish, kvant materiallari va rivojlangan funksional qurilmalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Kvant jarayonlarini boshqarishning samarali usullaridan biri yapon olimlari K. Nakamura va S. Masuda tomonidan ilgari surilgan kvant tizimining tezlashtirilgan (sekinlashtirilgan) evolyutsiyasi deb ataladigan algoritmdir.

Hozirgi kunda, jahonda Shredinger tenglamalari bilan tavsiflangan kvant tizimining tezlashtirilgan (sekinlashtirilgan) evolyutsiyasini turli kontekstlarda va turli xil yondashuvlarda o‘rganilmoqda. Shunday yo‘nalishlardan biri adiabatikaga eng qisqa yo‘l bo‘lib, undagi maqsad sekin evolyutsiya bilan berilgan manzilga tezda erishishdir. So‘nggi o‘n yil ichida bir qator olimlar tomonidan past o‘lchamli kvant tizimlarining adiabatik kvant dinamikasini boshqarishning turli xil versiyalari taklif qilingan. Ushbu nuqtai nazardan dinamik konfaynment orqali kvant evolyutsiyasining tezlashishini, Shredinger tenglamasida nostatsionar chegaraviy shartlarining parametrlarini manipulyatsiya qilish orqali amalga oshirish alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunday tizimlarda kvant tizimining evolyutsiyasini boshqarish uchun vosita sifatida konfaynment parametrlarini to‘g‘ri sozlash ishlatiladi.

Mamlakatimizda ham nazariy fizika, ham amaliy matematika nuqtai nazaridan past o‘lchamli funksional materiallarni o‘rganishda yuzaga keladigan turli kvant tizimlari va jarayonlarini modellashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, bu yo‘nalishda yuqori aniqlikdagi va stabil diskretlash usullaridan foydalanishni talab qiladigan turli potentsial va chegaraviy shartlar bilan berilgan nostatsionar kvant mexanik to‘lqin tenglamalarining sonli yechimlari asosida matematik modellarni ishlab chiqish alohida o‘rin tutadi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish Respublika universitetlari va Akademik Tadqiqot Institutlarining ilmiy guruhleri, kafedralari va laboratoriyalari kabi bir qator tashkilotlarning usutvor vazifalaridan biridir. Rezolyutsiyaning bajarilishini ta‘minlashda differensial tenglamalarni grafiklarda analitik va sonli yechish nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya izlanishlari ma'lum darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida, 2012 yil 21 martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli Qarori, 2010 yil 15 dekabrda "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1442-sonli Qarori, 2017 yil 17 fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-sonli Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 1 fevraldagi "Joylarda komp'yuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №24-sonli Qarorida, shuningdek, mazkur faoliyatga bag'ishlangan boshqa xuquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti REP-05032022/235 «Ultrafast phenomena and vacuum effects in relativistic artificial atoms created in graphene», F-2021-440 «Tarmoqlangan past o'lchamli strukturalarda kvant transporti va kvazizarralar dinamikasi: Shaffof kvant tarmoqlarini modellashtirish va dizaynlashtirish» ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida amalga oshirildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Kvant tizimlari evolyutsiyasini nazorat qilish va kvant jarayonlarini tezlashtirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan Basklar davlati universiteti (Ispaniya), Lyuksemburg universiteti (Lyuksemburg), Ibroniya universiteti (Isroil), Nyukasl universiteti (Buyuk Britaniya), Bengkulu universiteti (Indoneziya), Merilend universiteti (AQSh), Maks Plank nomidagi murakkab tizimlar fizikasi instituti (Germaniya), O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston) kabi ilmiy tashkilotlarda olib borilmoqda.

Butun dunyoda kvant tizimlari evolyutsiyasini analitik va raqamli modellashtirish va past o'lchamli tizimlarning kvant dinamikasini boshqarish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda jadal ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: kvant jarayonlarining evolyutsiyasini manipulyatsiya qilish usullarini ishlab chiqish, kvant evolyutsiyasini tezlashtirish yoki sekinlashtirish metodlarini ishlab chiqish, shuningdek kvant jarayonlarining boshqariladigan evolyutsiyasini modellashtirish uchun kvant tizimlarining bir qator xususiyatlarni o'rganish amalga oshirilmoqda.

Butun dunyoda past o'lchamli tizimlarda kvant evolyutsiyasini o'rganish, shuningdek, nostatsionar Shredinger tenglamasi yordamida tavsiflanadigan kvant tizimlari dinamikasini tezlashtirish yoki sekinlashtirish algoritmlari ishlab chiqish

bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy yutuqlarga erishildi, jumladan: kvant evolyutsiyasini tezlashtirish yoki sekinlashtirishning matematik nazariyasining asoslari ishlab chiqildi, “fast-forward” algoritmiga (Osaka University) asoslangan kvant evolyutsiyasini boshqarishning bir qator samarali usullari taklif qilindi, “short cuts to quantum evolution” (University of the Basque Country) asosida kvant tizimlarining adiabatik evolyutsiyasini boshqarish metodlari ham o'rganildi, shuningdek, nostatsionar Dirak tenglamasi yordamida tavsiflanadigan relativistik tizimlarning kvant evolyutsiyasini tezlashtirish usuli ishlab chiqildi (University of Maryland), kvant tizimlarida adiabatik invariantlarni tezlashtirish usullari o'rganildi (University of Maryland), kvant tizimlarida tunnel effektining dinamikasini boshqarish usuli ishlab chiqildi (O'zbekiston Milliy universiteti), stoxastik issiqlik dvigatellarini manipulyatsiya qilish usullari tadqiq qilindi (O'zbekiston Milliy universiteti), spinlar dinamikasini boshqarish usuli ishlab chiqildi (Bengkulu universiteti).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kvant tizimlar evolyutsiyasini manipulyatsiya qilish tushunchasi A. Emmanuilidu, M. Berri, S. Rays, M. Demirplak, K. Nakamura, S. Masuda va J. G. Muga asarlarida kiritilgan. Biroq, kvant adiabatik jarayonlar uchun kvant tizimlarining evolyutsiyasini manipulyatsiya qilish usullarini birinchi qo'llash K. Nakamura, S. Masuda, A. del Kampo, X. Chen ishlariga borib taqaladi. Keyinchalik Xi Chen, A. Ruschhaupt, S. Shmidt, A. del Campo, D. Guery-Odelin, J. G. Muga “shortcuts to adiabaticity” usuli yordamida atom sovutish modelini taqdim etdi. K. Nakamura, A. Xojaqulov, S. Masuda, S. Avazboyevlar an'anaviy va adiabatik rejimlarda kvant tunnellar jarayonini tezlashtirish usullarini taklif qildilar. S. Masuda, U. Gungordu, X. Chen, T. Ohmi, M. Nakaxara Bose-Eynshteyn kondensatlarida topologik girdoblar hosil bo'lishini tezlashtirish yo'llarini ishlab chiqdilar. Stoxastik issiqlik dvigatellarini tezlashtirish muammosi birinchi marta K. Nakamura, Y. Izumida tomonidan ko'rib chiqilgan. Tezlashtirilgan dinamik kvant tutilishining termodinamik xossalari K. Nakamura, G. Babajanova, A. del Kampo, J. Goold, M. Paternostro tomonidan o'rganilgan. Klassik adiabatik invariant uchun tezlanish sxemasi C. Jarzinski, S. Deffner, A. Patra, Y. Subasi tomonidan taklif qilingan. S. Deffner relyativistik kvant jarayonlari dinamikasini tezlashtirish muammosini ko'rib chiqdi. Spin dinamikasini tezlashtirish muammosini I. Setiawan, B.E. Gunara, S. Masuda, K. Nakamura ko'rib chiqdilar.

Tadqiqot ishining maqsadi. Ushbu dissertatsiyaning maqsadi kvant tizimlarining tezlashtirilgan va sekinlashtirilgan adiabatik evolyutsiyasini modellashtirish va taklif qilingan matematik modellarni kvant issiqlik dvigatellariga qo'llashdan iborat. Tadqiqotning yana bir maqsadi stoxastik tizimlarning boshqariladigan evolyutsiyasini modellashtirishdir.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1. Kvant qutisidagi kvant gazlarining boshqariladigan adiabatik evolyutsiyasini modellashtirish;
2. Past o'lchamli kvant tizimlarining evolyutsiyasini tezlashtirish va sekinlashtirish shartlarini aniqlash;
3. Dinamik konfaynment ostidagi tezlashtirilgan adiabatik kvant evolyutsiyasini modellashtirish;

4. Stoxastik issiqlik dvigatelining matematik modelini qurish;
5. Tarmoqlangan past o'lchamli tuzilmalarda Broun zarrasining dinamikasini modellashtirish;
6. Past o'lchamli tizimlarda kvant evolyutsiyasini tezlashtirish uchun adiabatik eng qisqa yo'lning (adiabatiklikka qisqartmalar) matematik modelini qurish.

Tadqiqot ishining ob'ekti: past o'lchamli kvant tizimlari, dinamik konfaynment ostidagi kvant ideal gaz, stoxastik issiqlik dvigateli, tarmoqlangan strukturalardagi Broun zarrasi.

Tadqiqot ishining predmeti: kichik o'lchamli kvant sistemalarining evolyutsiyasini tezlashtirish va sekinlashtirish usullarini ishlab chiqish, dinamik konfaynmentda qaralyotgan tizimlarning adiabatik evolyutsiyasini boshqarish, stoxastik issiqlik mashinasi matematik modelini ishlab chiqish, tarmoqlangan kichik o'lchamli tizimlarda Broun harakatini boshqarish.

Tadqiqot ishining usullari: ushbu dissertatsiyada Shredinger, issiqlik, Kramers va Fokker-Plank tenglamalarini analitik va sonli yechish usullari qo'llanildi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Dinamik konfaynmentda past o'lchamli kvant tizimlarining evolyutsiyasini tezlashtirish (sekinlashtirish) usuli taklif etiladi;

Evolyutsiyani tezlashtirish jarayonini eksperimental ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi "Tezlashtiruvchi potentsial" ning aniq ko'rinishi olindi;

Stoxastik issiqlik dvigatelining matematik modeli va uning ishlash jarayoni va evolyutsiyasini tezlashtirish orqali uning ishlashini boshqarish usuli taklif qilindi;

Past o'lchamli tarmoqlangan tizimlarda boshqariladigan Broun harakatining matematik modeli taklif qilindi;

Dinamik konfaynmentda past o'lchamli tizimlarning issiqlik uzatishni tezlashtirish usuli ishlab chiqilgan;

Dinamik konfaynmentdagi kvant ideal Fermi gazi uchun yangi holat tenglamalari olindi.

Tadqiqot ishining amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vaqtga bog'liq chegaraviy shartlar bilan berilgan nostatsionar Shredinger tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalari va metrik graflardagi Fokker-Plank tenglamalari uchun chekli ayirmalar sxemalari taqdim etildi;

past o'lchamli kvant tizimlarining tezlashtirilgan evolyutsiyasi uchun Shredinger tenglamalasi va stoxastik issiqlik dvigatelining matematik modelini yaratish uchun Kramers tenglamasini sonli va analitik yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishda qo'llaniladigan yondashuv juda universal bo'lib, kvant evolyutsiyasini boshqarish nazariyasiga, shuningdek kvant ideal gaz fizikasiga hissa qo'shadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati ulardan issiqlik dvigatellarini klassik va kvant rejimlarida modellashtirish, past o'lchamli tizimlarining sodda kvant evolyutsiyani tezlashtirish va sekinlashtirish usullarini ishlab chiqish, shuningdek, past o'lchamli tarmoqlangan strukturalarda Broun harakatini modellashtirishda

foydalanish imkoniyatini beradi. Bu muammolarning barchasi kvant texnologiyalari va stoxastik dinamika bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari:

- 1) Past o'lchamli tizimlarda adiabatik kvant evolyutsiyasini tezlashtirish usuli taklif qilindi;
- 2) Past o'lchamli tizimlarda amalga oshirilgan stoxastik issiqlik dvigatelining matematik modeli taklif etildi;
- 3) Past o'lchamli tizimlarda diffuziyani boshqarish usuli taklif qilindi;
- 4) Metrik graflarda Fokker-Plank tenglamasining analitik yechimi olindi;
- 5) Past o'lchamli tarmoqlangan strukturalarda Broun harakatining modeli taklif qilindi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. “Quantum gas in the fast forward scheme of adiabatically expanding cavities: Force and equation of state” ilmiy natijalariga asoslanib:

to'liq funksiyasining analitik ifodasi quyidagi xorijiy ilmiy ishlarda (Philosophical Transactions of Royal Society A, Volume 380, 20210278, November 2022; Reviews of Modern Physics, Volume 91, 045001, October 2019; Physical Review A, Volume 99, 062116, June 2019; Physical Review E, Volume 102, 012129, July 2020; Applied Mathematics Letters, Volume 143, 108684, September 2023) kvant kuchi, kinetik energiya, ichki energiya kabi fizik kattaliklarning o'rtacha qiymatini hisoblash uchun qo'llanilgan. Ilmiy natijani qo'llash qattiq va yumshoq devorlarli dinamik konfaynmentdagi kvant ideal gazining qayta qurish modelini yaratishga imkon berdi;

“Fast-forward approach to stochastic heat engine” ilmiy natijalariga asoslanib:

Maqolada izotermik va adiabatik jarayonlarni tezlashtirish uchun olingan potentsial quyidagi xorijiy ilmiy ishlarda (Frontiers in Physics, 16-jild, 33202, dekabr 2021; Physical Review Letters, jild 128, 230603, 2022 yil iyun; Physical Review, 054108, 2022 yil noyabr; Statistik mexanika jurnali: nazariya va eksperiment, jild 2020, 093207, 2020 yil; Fizika sharhi E, 106-jild, 024105, avgust 2022; Fizika sharhi E16, 2022-yil avgust; Tadqiqotni ko'rish, 4-jild, 023157, 2022 yil may; The European Physical Journal Plus, jild 137, 1011, 2022 yil sentyabr; Physical Review E, 103-jild, 032146, 2021 yil mart; The European Physical Journal B, 2-jild 2021-jild; Fizikadagi taraqqiyot haqida, 86-jild, 035902, 2023 yil yanvar) stoxastik issiqlik dvigatelining termodinamik xususiyatlarini o'rganishda qo'llanilgan.

Tadqiqot ishi natijalari asosida ikkita “Моделирование случайных процессов с использованием уравнения Фоккера-Планка на метрических графах” (DGU 2022 2974, 05/23/2022) va “Программный комплекс для моделирования броуновского движения в сетях по методу Фоккера-Планка” (DGU 20237477, 18/10/2023) dasturiy mahsulot uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan ro'yxatga olingan sertifikatlar olingan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish: tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 1 ta respublika va 4 ta xalqaro konferensiyalarda, shuningdek, Dyusseldorf universitetining Nazariy fizika institutida va Anqara universiteti Fizika fakultetida o‘tkazilgan ilmiy seminarlarda sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi: tadqiqot natijalari bo‘yicha xalqaro jurnallarda 5 ta ilmiy maqola chop etilgan, bulardan 4 tasi SCOPUS ma‘lumotlar bazasiga kiradi va 4 ta konferensiya tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirishda O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq qilishdan kelib chiqqan holda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va talabi asoslanadi, maqsad va vazifalari, shuningdek tadqiqot ob‘ekti va predmeti shakllantiriladi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari taqdim qilinadi, olingan natijalarning ishonchligini asoslanadi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib beriladi, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiqi ro‘yxati, chop etilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va dissertatsiya ishining tuzilishi keltirildi.

“Kvant tizimlari evolyutsiyasini tezlashtirish va sekinlashtirish usullari” deb nomlangan birinchi bobda kvant evolyutsiyasini boshqarish muammosining hozirgi holati, dissertatsiya vazifalarining dolzarbliligi tavsifi keltirilgan, shuningdek Shredinger tenglamasi doirasida kvant evolyutsiyasini tezlashtirish va sekinlashtirish nazariyasi, xususan, "fast forward" algoritmi batafsil taqdim etildi.

“Adiabatik ravishda kengayib borayotgan nano o‘lchamli bo‘shliqdagi kvant gazning tezlashtirilgan evolyutsiyasi” deb nomlangan ikkinchi bob dinamik konfaynmentdagi ideal gazning tezlashtirilgan kvant evolyutsiyasini modellashtirishga bag‘ishlangan. Unda, xususan, vaqt bo‘yicha adiabatik o‘zgaruvchan kvant tizimining evolyutsiyasini tezlashtirish algoritmi taklif etiladi.

Xususan, silindrsimon bo‘shliqda joylashgan ideal gazning klapan bilan harakatlanuvchi adiabatik kvant evolyutsiyasini tezlashtirish sxemasi (usuli) taklif etilgan. Bir o‘lchamli tizimda dinamik konfaynment vaqtga bog‘liq bo‘lmagan Shredinger tenglamasi bilan tavsiflanuvchi statsionar (lahzali) ψ_0 kvant holatini hosil qiluvchi va sekin o‘zgaruvchan (vaqt bo‘yicha) V_0 potentsial tomonidan yaratilgan deb faraz qilamiz. Umumiy holatda, ya‘ni uzoq vaqt davomida tizimning evolyutsiyasi nostatsionar Shredinger tenglamasi yordamida tavsiflanadi.

Ushbu yondashuv doirasida biz sekin o‘zgaruvchan potentsial tomonidan yaratilgan "deformatsiyalanuvchi" tuzoqda joylashgan kvant tizimini ko‘rib chiqamiz, bu yerda deformatsiya $R(t)$ potentsial parametrining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi, uning adiabatik evolyutsiyasi quyidagi munosabat yordamida beriladi

$$R(t) = R_0 + \epsilon t,$$

bunda $\epsilon \ll 1$, o'sish koeffitsienti va uning kichikligi tufayli $R(t)$ ning sezilarli o'zgarishini kuzatish uchun yetarlicha uzoq vaqt $T = O\left(\frac{1}{\epsilon}\right)$ talab qilinadi. Bunday kvant tizimining evolyutsiyasi quyidagicha berilgan, statsionar bo'lmagan bir o'lchamli Shredinger tenglamasi yordamida tavsiflanadi:

$$i\hbar \frac{\partial \psi_0}{\partial t} = -\frac{\hbar^2}{2m} \partial_x^2 \psi_0 + V_0(x, R(t)) \psi_0,$$

bu yerda tashqi elektromagnit maydon bilan o'zaro ta'sir yo'q deb taxmin qilinadi. Keyin statsionar tizimga tegishli bog'langan holatlar quyidagicha berilgan Shredinger tenglamasi yordamida tavsiflanadi:

$$E \phi_0 = \hat{H}_0 \phi_0 \equiv \left[-\frac{\hbar^2}{2m} \partial_x^2 + V_0(x, R) \right] \phi_0.$$

Shuningdek, biz quyidagi ifoda orqali berilgan regulyarlashtirilgan kvant holatini kiritamiz

$$\begin{aligned} \psi_0^{reg} &\equiv \phi_0(x, R(t)) e^{i\epsilon \theta(x, R(t))} e^{-\frac{i}{\hbar} \int_0^t E(R(t')) dt'} \\ &\equiv \phi_0^{reg}(x, R(t)) e^{-\frac{i}{\hbar} \int_0^t E(R(t')) dt'}. \end{aligned}$$

Va shunga mos ravishda belgilangan potentsial –

$$V_0^{reg} \equiv V_0(x, R(t)) + \epsilon \tilde{V}(x, R(t)).$$

Bunda θ va \tilde{V} noma'lum hadlar, ψ_0^{reg} quyidagi nostatsionar Shredinger tenglamasini qanoatlantirishi orqali ϵ aniqlikda topilishi mumkin:

$$i\hbar \frac{\partial \psi_0^{reg}}{\partial t} = -\frac{\hbar^2}{2m} \partial_x^2 \psi_0^{reg} + V_0^{reg} \psi_0^{reg}.$$

$\phi_0(x, R(t))$ funksiyani, $\bar{\phi}_0(x, R(t))$ haqiqiy qiymatli amplituda va $\eta(x, R(t))$ fazalar orqali quyidagicha yozib olib

$$\phi_0(x, R(t)) = \bar{\phi}_0(x, R(t)) e^{i\eta(x, R(t))},$$

θ va \tilde{V} lar uchun quyidagi ifodalarga ega bo'lamiz:

$$\partial_x (\bar{\phi}_0^{-2} \partial_x \theta) = -\frac{m}{\hbar} \partial_R \bar{\phi}_0^{-2},$$

$$\frac{\tilde{V}}{\hbar} = -\partial_R \eta - \frac{\hbar}{m} \partial_x \eta \cdot \partial_x \theta.$$

Yuqoridagi so'nggi ikkita ifodadan birinchisini x bo'yicha integrallab, navbdatdagi ifodani olamiz:

$$\partial_x \theta = -\frac{m}{\hbar} \frac{1}{\phi_0^2} \int^x \partial_R \bar{\phi}_0^2 dx'.$$

Bizning vazifamiz tashqi elektromagnit maydon ta'sirida ψ_0^{reg} kvant holatining adiabatik dinamikasi evolyutsiyasini tezlashtirishdir. Buning uchun biz ushbu holatning tezlashtirilgan versiyasini navbatdagi shaklda kiritamiz:

$$\psi_{FF}^{(0)}(x, t) = \psi_0^{reg}(x, R(\Lambda(t))) = \phi_0^{reg}(x, R(\Lambda(t))) e^{-\frac{i}{\hbar} \int_0^t E(R(\Lambda(t'))) dt'}$$

Bu yerda

$$R(\Lambda(t)) = R_0 + \epsilon \Lambda(t),$$

$\Lambda(t)$ esa ushbu ko'rinishda ifodalanadi:

$$\Lambda(t) = \int_0^t \alpha(t') dt'.$$

Bu yerda $\alpha(t)$ – vaqt shkalasini oshirish omili, u $\alpha(0) = 1$, $\alpha(t) > 1$ ($0 \leq t \leq T_{FF}$), $\alpha(t) = 1$ ($t > T_{FF}$) ko'rinishda aniqlangan. T – bu $R(t)$ ni sezirarli o'zgarishga olib keluvchi juda uzoq vaqt deb hisoblab, uning T_{FF} ga bog'liqligini shu ko'rinishda yozib olamiz:

$$T = \int_0^{T_{FF}} \alpha(t) dt.$$

Ushbu vaqt oralig'ida ($0 \leq t \leq T_{FF}$), tezlashtirilgan $\alpha(t)$ ning aniq ifodasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$\alpha(t) = \bar{\alpha} - (\bar{\alpha} - 1) \cos\left(\frac{2\pi}{T/\bar{\alpha}} t\right),$$

bu yerda $\bar{\alpha}$ – bu $\alpha(t)$ ning o'rtacha qiymati, va bu $\bar{\alpha} = T/T_{FF}$ ko'rinishda aniqlanadi. Biz $\psi_{FF}^{(0)}$ to'lqin funksiyani, $A_{FF}^{(0)}(x, t)$ va $V_{FF}^{(0)}(x, t)$ maydon potentsiallarida zaryadlangan zarra uchun Shredinger tenglamasining yechimi deb tasavvur qilamiz:

$$i\hbar \frac{\partial \psi_{FF}^{(0)}}{\partial t} = H_{FF} \psi_{FF}^{(0)} \equiv \left(\frac{1}{2m} \left(\frac{\hbar}{i} \partial_x - A_{FF}^{(0)} \right)^2 + V_{FF}^{(0)} + V_0^{reg} \right) \psi_{FF}^{(0)},$$

bu yerda qulaylik uchun biz birlik zaryad ($q = 1$) va birlik yorug'lik tezliklaridan ($c = 1$) foydalanamiz. Shundan so'ng elektr maydonini quyidagicha yozib olamiz

$$E_{FF} = -\frac{\partial A_{FF}^{(0)}}{\partial t} - \partial_x V_{FF}^{(0)}.$$

Bu o'z navbatida ϕ_0^{reg} to'lqin funksiya uchun quyidagi Shredinger tenglamasiga olib keladi:

$$i\hbar \frac{\partial \phi_0^{reg}}{\partial t} = \frac{1}{2m} \left(\frac{\hbar}{i} \partial_x - A_{FF}^{(0)} \right)^2 \phi_0^{reg} + (V_{FF}^{(0)} + V_0^{reg} - E) \phi_0^{reg},$$

bu yerda $V_0^{reg} \equiv V^{reg}(x, R(\Lambda(t)))$.

ϕ_0^{reg} funksiyani $\bar{\phi}_0$ amplituda va $\eta + \epsilon\theta$ faza oqali quyidagicha yozib olib

$$\phi_0^{reg} \equiv \bar{\phi}_0(x, R(\Lambda(t))) e^{i[\eta(x, R(\Lambda(t))) + \epsilon\theta(x, R(\Lambda(t)))]},$$

$\psi_{FF}^{(0)}$ to'lqin funksiyasi uchun navbatdagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$\psi_{FF}^{(0)} = \bar{\phi}_0(x, R(\Lambda(t))) e^{i\eta(x, R(\Lambda(t)))} e^{-\frac{i}{\hbar} \int_0^t E(R(\Lambda(t'))) dt'}.$$

Yuqorida olingan natijalar, masalan, harakatlanuvchi devorga ega bo'lgan bir o'lchovli kvant qutisidagi kvant zarrasining evolyutsiyasini tezlashtirish uchun qo'llanilishi mumkin. Bunday tizimning modeli quyidagi nostatsionar Shredinger tenglamasi yordamida tavsiflanadi:

$$i\hbar \frac{\partial \psi}{\partial t} = H_0 \psi = -\frac{\hbar^2}{2m} \partial_x^2 \psi,$$

bu yerda to'lqin funksiya $\psi(x=0, t) = 0$ va $\psi(x=L(t), t) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. Devorning holatidagi o'zgarishni adiabatik deb hisoblaymiz, ya'ni $L(t) = L_0 + \epsilon t$, va bu yerda ϵ – kichik kattalik.

Bunday adiabatik kvant tizimining xos qiymatlari va xos funktsiyalari quyidagi ko'rinishga ega:

$$E_n = \frac{\hbar^2}{2m} \left(\frac{\pi n}{L} \right)^2,$$

$$\phi_n = \sqrt{\frac{2}{L}} \sin \left(\frac{\pi n}{L} x \right).$$

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan amallarga ko'ra, biz regulyarlashtirish bosqichning fazasini quyidagicha aniqlashtirib olamiz:

$$\partial_x \theta = -\frac{m}{\hbar} \frac{1}{\phi_n^2} \partial_L \int_0^x \phi_n^2 dx = \frac{m}{\hbar} \frac{x}{L},$$

$$\theta = \frac{m}{2\hbar} \frac{x^2}{L}.$$

Kvant tizimning adiabatik evolyutsiyasini tezlashtirish uchun yuqorida keltirilgan algoritmni qo'llash tezlashtirilgan tizimning to'lqin funktsiyasi uchun quyidagi natijani beradi:

$$\psi_{FF} = \phi_n(x, L(\Lambda(t))) e^{i\frac{mL}{2\hbar L}x^2} e^{-i\frac{\hbar}{2m}(\pi n)^2 \int_0^t \frac{dt'}{L^2(\Lambda(t'))}}.$$

Bu yerda $L(\Lambda(t)) = L_0 + \int_0^t v(t')dt'$, va $v(t) = \bar{v} \left(1 - \cos \frac{2\pi}{T_{FF}} t\right)$. Evolyutsiyani tezlashtiruvchi potentsial uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$V_{FF} = -\frac{m\ddot{L}}{2L}x^2,$$

va bu avvalgi tadqiqotlar natijalariga mos keladi.

"Stoxastik issiqlik dvigateling tezlashtirilgan evolyutsiyasi" deb nomlangan uchinchi bobda Karno printsipi asosida ishlaydigan stoxastik dvigatelning boshqariladigan faoliyati modeli taklif etiladi. Bunday issiqlik dvigatelning misoli sifatida, masalan, so'nggi o'n yil ichida katta qiziqish uyg'otgan Broun issiqlik dvigatellarini olish mumkin. Ushbu ishda biz garmonik potentsial bilan o'zaro ta'sir qiluvchi va yuqori (T_h)- va past (T_c)- haroratli ikkita termal rezervuar orasida harakatlanadigan Broun zarrasidan iborat stoxastik issiqlik dvigatelida izotermik jarayonning evolyutsiyasini tezlashtirish modelini taklif qildik.

Ushbu modelda $k_B T (= \frac{1}{\beta})$ haroratga ega rezervuar bilan aloqada bo'lgan va kengayuvchi (siqiluvchi) garmonik potentsial (ya'ni, kengligi vaqt o'zgarishi bilan o'zgarib turadigan parabolik o'ra bilan) bilan o'zaro ta'sir qiluvchi Broun zarrasi ko'rib chiqilgan. Bunday tizimning $\rho_0(x, p, t)$ taqsimot funktsiyasi uchun

$$\frac{\partial \rho_0}{\partial t} + \frac{\partial J_x}{\partial x} + \frac{\partial J_p}{\partial p} = 0. \quad (1)$$

Bu yerda (J_x, J_p) quyidagicha aniqlangan ehtimolliklar oqimi

$$J_x = \left(\frac{\partial H_0}{\partial p} + \frac{1}{\beta} \frac{\partial}{\partial p}\right) \rho_0,$$

$$J_p = -\left(\frac{\partial H_0}{\partial x} + \frac{1}{\beta} \frac{\partial}{\partial x}\right) \rho_0 - \gamma \left(\frac{\partial H_0}{\partial p} + \frac{1}{\beta} \frac{\partial}{\partial p}\right) \rho_0. \quad (2)$$

Bu yerda $H_0 = \frac{p^2}{2} + \frac{1}{2} \lambda x^2$ – parabolik tuzoqdagi Broun zarrasi Gamiltoniani, λ – bikirlik koeffitsiyenti, va γ – ishqalanish koeffitsiyenti. Oxirgi ikkita ifodadan foydalanib, Kramers tenglamasini quyidagicha yozib olish mumkin

$$\frac{\partial \rho_0}{\partial t} = \{H_0, \rho_0\} + \gamma \partial_p \left(\frac{\partial H_0}{\partial p} \rho_0 + \frac{1}{\beta} \partial_p \rho_0\right), \quad (3)$$

Bu yerda $\{\dots, \dots\}$ – Puasson qavslari. (3) tenglamaning oxirgi hadi $\frac{\gamma}{\beta}$ ga proporsionaldir va Lanjevin tenglamasida paydo bo'ladigan Gauss (oq) shovqini bilan bog'liq. Bikrlik koeffitsiyenti $\lambda = const$ bo'lgan hol uchun, qaralyotgan tizimning taqsimot funksiyasi ρ_0^{eq} Gauss ko'rinishga ega bo'ladi. Statsionar hol uchun $\partial_t \rho_0 = 0$ Kramers tenglamasi quyidagi yechimga ega bo'ladi

$$\rho_0^{eq} = \frac{\beta\sqrt{\lambda}}{2\pi} \exp(-\beta H_0(\lambda)), \quad (4)$$

va quyidagi normirovka shartini qanoatlantiradi

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \int_{-\infty}^{+\infty} \rho_0^{eq}(x, p) dx dp = 1.$$

λ vaqt bo'yicha sekin o'zgaradigan holni, ya'ni kvazistatik holni ko'rib chiqamiz:

$$\lambda(t) \equiv \lambda_0 + \varepsilon t \quad (5)$$

Bu yerda $|\varepsilon| \ll 1$, va bu $\lambda(t)$ ning sezilarli o'zgarishini kuzatish uchun juda uzoq $T = O(\frac{1}{|\varepsilon|})$ vaqt talab qiladi.

Dastavval biz quyidagi ko'rinishda, regulyarlashtirilgan $\rho_0^{reg}(x, p; \lambda(t))$ taqsimot funksiyasini kiritib olamiz

$$\rho_0^{reg} = \exp[-\beta H_0(\lambda(t)) - \Gamma(\lambda(t))] \quad (6)$$

va bu yerda

$$H_0(\lambda(t)) \equiv \frac{p^2}{2} + \frac{\lambda(t)}{2} x^2, \\ \exp(-\Gamma(\lambda(t))) \equiv \frac{\beta\sqrt{\lambda(t)}}{2\pi}. \quad (7)$$

H_0 ga potentsial εh ni qo'shish orqali biz Kramers tenglamasining regulyarlashtirilgan versiyasini olishimiz mumkin:

$$\frac{\partial \rho_0^{reg}}{\partial t} = \{H_0 + \varepsilon h, \rho_0^{reg}\} + \gamma \partial_p (p \rho_0^{reg} + \frac{1}{\beta} \partial_p \rho_0^{reg}) + \varepsilon \gamma \partial_p (\rho_0^{reg} \frac{\partial h}{\partial p}). \quad (8)$$

Regulyarlashtirilgan taqsimot funksiyasi ρ_0^{reg} ushbu ifodani qanoatlantirishini

$$\partial_t \rho_0^{reg} = \frac{\partial \rho_0^{reg}}{\partial \lambda} \frac{d\lambda}{dt} \\ = \varepsilon \left[-\frac{\beta}{2} x^2 + \frac{1}{2\lambda} \right] \rho_0^{reg}, \quad (9)$$

va (8) tenglamaning ikki tarafini tenglashtirib quyidagi ifodalarni olamiz

$$\{H_0, \rho_0^{reg}\} + \gamma \partial_p(p\rho_0^{reg} + \frac{1}{\beta} \partial_p \rho_0^{reg}) = 0, \quad (10)$$

$$[-\frac{\beta}{2}x^2 + \frac{1}{2\lambda}]\rho_0^{reg} = \{h, \rho_0^{reg}\} + \gamma \partial_p(\rho_0^{reg} \partial_p h). \quad (11)$$

Quyidagi munosabatni hisobga olib $\partial_p \rho_0^{reg} = -\beta p \rho_0^{reg}$ va $\partial_x \rho_0^{reg} = -\beta \lambda x \rho_0^{reg}$, (11) tenglamani ushbu ko'rinishda yozib olamiz

$$-\frac{\beta}{2}x^2 + \frac{1}{2\lambda} = +\beta[\lambda x \partial_p h - p \partial_x h] - \gamma \beta p \partial_p h + \gamma \partial_{pp} h. \quad (12)$$

(12) tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishda faraz qilamiz

$$h = ap^2 + bpx + cx^2. \quad (13)$$

Buning natijasida biz algebraik tenglamar sistemasiniga kelamiz:

$$b + 2\gamma a = 0,$$

$$\lambda b = -\frac{1}{2},$$

$$2\lambda a - 2c - \gamma b = 0,$$

$$\frac{1}{2\lambda} - 2\gamma a = 0. \quad (14)$$

Ushbu sistemaning yechimlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi $a = \frac{1}{4\gamma\lambda}$, $b = -\frac{1}{2\lambda}$, va $c = \frac{1}{4}(\frac{1}{\gamma} + \frac{\gamma}{\lambda})$. Bundan biz h uchun quyidagi ifodani olamiz

$$h = \frac{1}{4\gamma\lambda}p^2 - \frac{1}{2\lambda}px + (\frac{1}{4\gamma} + \frac{\gamma}{4\lambda})x^2. \quad (15)$$

Yuqorida olingan natija ε dagi birinchi yaqinlashuvga tegishli ekanligi, ya'ni u ikkinchi tartib ε^2 ni hisobga olmasligiga e'tibor beramiz.

Bizning vazifamiz (9) tenglama orqali tavsiflanadigan tizimning evolyutsiyasini tezlashtirishdan iborat. Bu muammoni hal qilishning samarali usullaridan biri (t) vaqtni o'zgaruvchisini bu "tezlashtirilgan" $\Lambda(t)$ vaqtga almashtirishdir. Bu yerda biz $\alpha(t) \gg 1$ masshtab koeffitsientini kiritib, ($\Lambda(t)$) funksiyani quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$\Lambda(t) = \int_0^t \alpha(t') dt'. \quad (16)$$

Tezlanish oraliqi $0 \leq t \leq T_{FF}$ bo'lganda, $\alpha(t)$ funksiyani quyidagi ko'rinishda yozib olamiz $\alpha(t) = 1 + (\bar{\alpha} - 1)f(s)$, bu yerda $s \equiv \frac{t}{T_{FF}}$. $\bar{\alpha} (> 1)$. Bu yerda $f(s) (\geq 0)$ funksiya $f(0) = f(1) = \dot{f}(0) = \dot{f}(1) = 0$ ko'rinishda berilgan chegaraviy shartlarni

va $\bar{f} = \int_0^1 f(s')ds' = 1$ normirovka shartini qanoatlantiradi deb hisoblab, quyidagi ifodani olamiz

$$\alpha(t) = \bar{\alpha} - (\bar{\alpha} - 1)\cos\left(\frac{2\pi}{T_{FF}}t\right). \quad (17)$$

So'ngra, λ bikirlik koefitsiyentiining vaqtga bog'liqligini quyidagicha faraz qilamiz

$$\lambda(\Lambda(t)) = \lambda_0 + \varepsilon\Lambda(t). \quad (18)$$

Shunda ρ_{FF} tezashtirilgan tizim taqsimot funksiyasi quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin

$$\begin{aligned} \rho_{FF}(x, p, t) &\equiv \rho_0^{reg}(x, p; \lambda(\Lambda(t))) \\ &= \exp[-\beta H_0(\lambda(\Lambda(t))) - \Gamma(\lambda(\Lambda(t)))]. \end{aligned} \quad (19)$$

Bu ρ_{FF} taqsimot funksiyasi tezashtirilgan tizimning vaqt bo'yicha evolyutsiyasini tavsiflovchi quyidagi Kramers tenglamasini qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned} \frac{\partial \rho_{FF}}{\partial t} &= \frac{\partial \lambda}{\partial t} \frac{\partial \rho_{FF}}{\partial \lambda} = \varepsilon \alpha \frac{\partial \rho_{FF}}{\partial \lambda} \\ &= \varepsilon \alpha \{h, \rho_0^{reg}\} + \gamma \varepsilon \alpha \partial_p (\rho_0^{reg} \partial_p h). \end{aligned}$$

Kramers tenglamasini $\lim_{\varepsilon \rightarrow 0, \bar{\alpha} \rightarrow \infty} \varepsilon \bar{\alpha} = \bar{v}$ (bu yerda $\bar{v} > 0$ ($\bar{v} < 0$) va $\varepsilon \rightarrow +0$ ($\varepsilon \rightarrow -0$)) limitda navbatdagi ko'rinishda yozib olish mumkin:

$$\frac{\partial \rho_{FF}}{\partial t} = \{H_0 + v(t)h, \rho_{FF}\} + \gamma \partial_p (p\rho_{FF} + \frac{1}{\beta} \partial_p \rho_{FF}) + \gamma \partial_p (\rho_{FF} \frac{\partial(v(t)h)}{\partial p}). \quad (20)$$

Bu yerda $v(t)$ tezlik va u $\alpha(t)$ funksiyasi orqali shunday ifodalanadi:

$$v(t) = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0, \bar{\alpha} \rightarrow \infty} \varepsilon \alpha(t) = \bar{v} \left(1 - \cos\left(\frac{2\pi}{T_{FF}}t\right) \right). \quad (21)$$

Shunday ekan, $0 \leq t \leq T_{FF}$ oraliqda, bikirlik koefitsiyentii uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$\begin{aligned} \lambda(\Lambda(t)) &= \lambda_0 + \lim_{\varepsilon \rightarrow 0, \bar{\alpha} \rightarrow \infty} \varepsilon \Lambda(t) = \lambda_0 + \int_0^t v(t')dt' \\ &= \lambda_0 + \bar{v} T_{FF} \left[\frac{t}{T_{FF}} - \frac{1}{2\pi} \sin\left(\frac{2\pi}{T_{FF}}t\right) \right]. \end{aligned}$$

Navbatdagi munosabat quyidagicha yoziladi

$$\lambda(0) = \lambda_0, \quad \lambda(T_{FF}) = \lambda_0 + \bar{v} T_{FF} \quad (22)$$

va quyidagi ifodani hisobga olib

$$\dot{\lambda}(0) = \dot{\lambda}(T_{FF}) = 0, \quad (23)$$

tezlashtirilgan tizim Gamiltoniani uchun ushbu ifodaga kelamiz:

$$H_{FF}(x, p, t) = H_0 + \dot{\lambda}h. \quad (24)$$

Yuqorida (24) tenglamada berilgan Gamiltonian va (19) tenglamada berilgan taqsimot funksiyasi yordamida stoxastik issiqlik dvigatelining ish W , issiqlik miqdori Q va ichki energiya E kabi termodinamik kattaliklarini hisoblay olamiz. Ishning o'rtacha qiymati navbatdagi ifoda orqali aniqlanadi

$$W = \int_0^{T_{FF}} dt \left\langle \frac{\partial H_{FF}}{\partial t} \right\rangle. \quad (25)$$

Quyidagi munosabatni hisobga olib

$$\begin{aligned} \left\langle \frac{\partial H_{FF}}{\partial t} \right\rangle &= \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\partial H_{FF}}{\partial t} \rho_{FF} dx dp \\ &= \left(\frac{\dot{\lambda}}{2} - \frac{\gamma \dot{\lambda}^2}{4\lambda^2} + \ddot{\lambda} \left(\frac{\gamma}{4\lambda} + \frac{1}{4\gamma} \right) \right) \frac{1}{\beta \lambda} \\ &\quad + \left(\frac{\ddot{\lambda}}{4\gamma\lambda} - \frac{\dot{\lambda}^2}{4\gamma\lambda^2} \right) \frac{1}{\beta}, \end{aligned} \quad (26)$$

ishni qaytar (W_{rev}) va qaytmas (W_{irr}) qismlarning yig'indisi ko'rinishida yozib olamiz:

$$W = W_{rev} + W_{irr} \quad (27)$$

Bu yerda

$$W_{rev} = \frac{1}{2\beta} \ln \lambda \Big|_0^{T_{FF}} = \frac{1}{2\beta} \ln \frac{\lambda(T_{FF})}{\lambda_0} \quad (28)$$

va

$$W_{irr} = \left(\frac{\gamma}{8} \int_0^{T_{FF}} \frac{\ddot{\lambda}}{\lambda^2} dt + \frac{1}{4\gamma} \int_0^{T_{FF}} \frac{\ddot{\lambda}}{\lambda} dt \right) \frac{1}{\beta}. \quad (29)$$

Yuqoridagi (29) tenglamada integrallarni hisoblab uni quyidagi sodda ko'rinishda yozib olamiz:

$$W_{irr} = \frac{\gamma k_B T}{8\lambda(0)T_{FF}} Z_2(\xi) + \frac{k_B T}{4\gamma T_{FF}} Z_1(\xi), \quad (30)$$

bu yerda

$$Z_n(\xi) \equiv \xi \int_0^1 \frac{2\pi \sin(2\pi s)}{[1 + \xi(s - \frac{1}{2\pi} \sin(2\pi s))]^n} ds. \quad (31)$$

Xuddi shunday tarzda ichki energiyani hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}
E(t) &\equiv \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} H_{FF} \rho_{FF} dx dp \\
&= (1 + \lambda (\frac{1}{2\gamma\lambda} + \frac{\gamma}{4\lambda^2})) \frac{1}{\beta}.
\end{aligned} \tag{32}$$

To'rtinchi bobda **“Tarmoqlangan strukturalardi Broun harakati dinamikasini modellashtirish”** sarlavhasi ostida, graflardagi Fokker-Plank tenglamasi asosida past o'lchamli tarmoqlangan strukturalardagi Broun zarrasining modeli taklif qilingan. Model garmonik ossilyator uchun yozilgan bir o'lchamli Fokker-Plank tenglamasiga asoslanadi:

$$\frac{\partial f}{\partial t} = \gamma \frac{\partial}{\partial x} (xf) + D \frac{\partial^2}{\partial x^2} f. \tag{33}$$

Bu yerda $f(x, t)$ – ehtimollik zichligi (yoki taqsimot funksiyasi), γ – ishqalanish koeffitsiyenti va $D = const$ – diffuziya koeffitsiyenti.

Boshlang'ich shart quyidagicha berilgan

$$f(x, 0) = \delta(x - x_0), \tag{34}$$

Fokker-Plank tenglamasining (33) cheksiz chiziqdagi yechimi quyidagicha ifodalanadi

$$f(x_0, x, t) = \sqrt{\frac{\gamma}{2\pi D(1-e^{-2\gamma t})}} \exp[-\frac{\gamma(x-e^{-\gamma t}x_0)^2}{2D(1-e^{-2\gamma t})}]. \tag{35}$$

Statsionar hol uchun ($\frac{\partial f}{\partial t} = 0$) yechim navbatdagi ifoda orqali beriladi

$$f = \sqrt{\frac{\gamma}{2\pi D}} \exp[-\frac{\gamma x^2}{2D}]. \tag{36}$$

Fokker-Plank tenglamasining yechimi (35) ushbu saqlanish qonunini qanotlantiradi:

$$\frac{d}{dt} \int_{-\infty}^{+\infty} f(x, t) dx = 0. \tag{37}$$

Bu yerda biz Fokker-Plank tenglamasini metrik graflarda qaraymiz, u past o'lchamli tarmoqlangan strukturalarda Broun harakatini tavsiflaydi. Oddiylik uchun uchta qirradan iborat yulduzsimon grafni ko'rib chiqing. Zarrachaning x_j koordinatalarini grafning har bir qirradi e_j uchun yozib olamiz. Bu yerda e_1 qirrani $x_1 \in (-\infty, 0]$ oraliqda, $e_{2,3}$ qirralarni esa $x_{2,3} \in [0, +\infty)$ oraliqda ko'rib chiqamiz.

Yulduzsimon metrik graf uchun Fokker-Plank tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial f_j}{\partial t} = \gamma_j \frac{\partial}{\partial x} (xf_j) + D_j \frac{\partial^2}{\partial x^2} f_j, \quad j = 1, 2, 3. \tag{38}$$

Bu yerda j – qirra raqami, D_j – har bir qirradagi diffuziya koeffitsiyenti, f_j – har bir qirradagi taqsimot zichligi. Fokker plank tenglamasini (38) graflarda yechish uchun,

grafning tuguniga chegaraviy shartlar qo'yish lozim. Bu yerda chegaraviy shartlarni yechimning vaznli saqlanishi:

$$\sqrt{\frac{D_1}{\gamma_1}} f_1(0, t) = \sqrt{\frac{D_2}{\gamma_2}} f_2(0, t) = \sqrt{\frac{D_3}{\gamma_3}} f_3(0, t), \quad (39)$$

va tok shaqlanishi qonuni (Kirxgof qoidasi) ko'rinishida beramiz:

$$D_1 \frac{\partial f_1}{\partial x} = D_2 \frac{\partial f_2}{\partial x} + D_3 \frac{\partial f_3}{\partial x}. \quad (40)$$

Boshlang'ich shartni quyidagicha yoziladi

$$f_j(x, 0) = \delta(x - x_{0j}). \quad (41)$$

Bunday chegaraviy va boshlang'ich shartlar uchun (38) tenglamaning yechimini quyidagicha olamiz:

$$f_j(x_{0j}, x, t) = \sqrt{\frac{\gamma_j}{2\pi D_j(1-e^{-2\gamma_j t})}} \exp\left[-\frac{\gamma_j(x-e^{-\gamma_j t}x_{0j})^2}{2D_j(1-e^{-2\gamma_j t})}\right]. \quad (42)$$


Diffuziya koeffitsiyentlari quyidagi yig'indi qoidasini qanoatlantiradi:

$$\frac{1}{\sqrt{D_1}} = \frac{1}{\sqrt{D_2}} + \frac{1}{\sqrt{D_3}}, \quad (43)$$


bu yerda $\gamma_1 = \gamma_2 = \gamma_3 = \gamma, x_{0j} = \pm\sqrt{D_j}$.

TEOREMA. Agar (43) yig'indilar qoidasi bajarilsa, u xolda (39) va (40) tugun chegaraviy shartlari graf tugunida shaffof chegaraviy shartga ekvivalent bo'ladi.

Yulduzsimon graf uchun yozilgan (38) Fokker-Plank tenglamasini aniq yechimini olish uchun (43) tenglamada berilgan yig'indilar qoidasi zarur va yetarli shartdir. Diffuziya koeffitsiyentlari uchun yozilgan (43) yig'indilar qoidasi bajarilgan hol uchun Fokker-Plank yechimlarining har xil vaqt oraliqlaridagi ($t = 150, t = 700$ и $t = 1000$) grafiklari 1-rasmda ko'rsatilgan,. Yig'indilar qoidasi bajarilmagan hol uchun (38) tenglamaning yechimlari grafiklari esa 2-rasmda keltirilgan, bunday hol uchun (38) tenglama faqat sonli usullar orqali yechiladi. Bu ishda (38) tenglamani sonli yechish uchun Crank-Nicolson diskretlash metodini qo'lladik. Ushbu grafiklarni solishtirib ularning o'rtasida sezilarli sifat va miqdoriy farqlarni kuzatish mumkin. 1-rasmda (yig'indilar qoidasi bajarilgan hol) taqsimot zichligi amplitudasi 2-rasmdagi (yig'indilar qoidasi bajarilmagan hol) taqsimot zichliklarining amplitudasidan ikki barobar katta.



1-rasm. Quyidagi qiymatlar uchun yulduzsimon graf uchun (38) tenglamani (43) qoida bajarilgan holda analitik yechib olingan taqsimot funksiyasi $f(x) : x_{01} = 0.7, x_{01} = 0.3, x_{01} = 0.5 \gamma_1 = \gamma_2 = \gamma_3 = 1.5$ va $D_2 = 0.9, D_3 = 0.7$.



2-rasm Quyidagi qiymatlar uchun yulduzsimon graf uchun (38) tenglamani (43) qoida bajarilmagan holda sonli usulda yechib olingan taqsimot funksiyasi $f(x) : x_{01} = 0.7, x_{01} = 0.3, x_{01} = 0.5 \gamma_1 = \gamma_2 = \gamma_3 = 1.5$ va $D_2 = 0.9, D_3 = 0.7$.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishi past o'lchamli sodda kvant tizimlarning va stoxastik jarayonlarining boshqariladigan adiabatik evolyutsiyasini ularning evolyutsiyasini tezlashtirish yoki sekinlashtirish yo'li bilan matematik modellashtirish masalalarini

yechishga bag'ishlangan. Dissertatsiyada olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar keltirilgan:

1. Devorlari adiabatik harakatlanuvchi (sekin) kvant qutidagi kvant ideal gazining tezlashtirilgan evolyutsiyasi matematik modeli taklif qilindi. Bunday tizimning termodinamik xarakteristikalarini hisobladi;
2. Past o'lchamli tizimlarda diffuziya jarayonlarini tezlashtirishning matematik modeli taklif qilindi;
3. Past o'lchamli tizimlarda stoxastik issiqlik dvigatelining matematik modeli taklif qilindi;
4. Kengligi vaqtga bog'liq bo'lgan parabolik tuzoqdagi Broun zarrasining evolyutsiyasini tezlashtirish algoritmi ishlab chiqildi;
5. Evolyutsiyasi tezlashtirilgan stoxastik issiqlik dvigatelining termodinamik kattaliklari uchun analitik formulalar olindi;
6. Tarmoqlangan past o'lchamli strukturalarda Broun zarrasining matematik modeli taklif qilindi;
7. Fokker-Plank tenglamasining graflardagi analitik va sonli yechimlari olindi;
8. Metrik grafiklarda Fokker-Plank tenglamasining boshlang'ich chegaraviy masalalarini sonli yechish algoritmlari va dasturlar to'plami ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ И
ПРИКЛАДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО УНИВЕРСИТЕТА «ТИИИМСХ»**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА
МАТРАСУЛОВ ЖАСУРБЕК ДАВРОНБЕК ЎҒЛИ**

**МОДЕЛИРОВАНИЕ УПРАВЛЯЕМОЙ АДИАБАТИЧЕСКОЙ
ЭВОЛЮЦИИ ПРОСТЫХ КВАНТОВЫХ СИСТЕМ И
СТОХАСТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В СИСТЕМАХ НИЗКОЙ
РАЗМЕРНОСТИ**

**05.01.07 – Математическое моделирование. Численные методы и комплексы
программ
(физико-математические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ РЪD ДИССЕРТАЦИИ
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ-2024

Тема диссертации докторская философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2021.4.DSc/FM142.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Юсупов Жамбул Руслонович доктор физико-математических наук
Официальные оппоненты:	Коловский Андрей Радиевич доктор физико-математических наук, профессор Полвонов Сатимбой Ражапович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация	Самаркандский Государственный университет

Защита диссертации состоится «25» октября 2024 года в 1600 часов на заседании Научного совета DSc.03/31.03. 2022.T/FM.10.04 при институте Фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ» (Адрес: 100000, г.Ташкент, улица Кори Ниязова 39, Тел.: +998 71 237-09-61; e-mail: info@ifar.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ» за № 8 (Адрес: 100000, г.Ташкент, ул. Кори Ниязов, дом 39. Тел.: (+998971) 237-19-36, Факс: (+998971) 237-09-75, e-mail: info@ifar.uz).

Автореферат диссертации разослан «19» июня 2023 года.

(протокола реестра № 8 от «17» июня 2023 года.)

ВВЕДЕНИЕ (аннотация PhD диссертации)

